



Bugungi kunda horijiy tillarni o`qitishda o`qituvchilir oldida yuzaga keladigan ayrim muammolar va ularning yechimlari hususida

G`. Jo`rayev

O`zDJTU Ingliz tili amaliy fanlar № 1 kafedrasi o`qituvchisi

Abstract: This article tells about the current state of teaching foreign languages in the higher education of our republic, the main methodological problems in the course of lessons, as well as their modern solutions. Effective and purposeful use of modern information technologies in lesson processes, formation of language skills in language learners and expansion of students` worldview in the process of language learning.

Key words: teaching processes, use of IT, foreign languages, English language, Storyboard platform, old methods, 21st century IT age, new methods, 21st century classroom, creative environment, VR technology, Free 4 talk site.

Annotatsiya: Mazkur maqola Respublikamiz oliv ta`lim tizimida bugungi kunda chet tillarini oqitish holati, dars o`tish jarayonidagi asosiy metodologik muammolar, shuningdek, ularning zamonaviy yechimlar bo`rasida hikoya qiladi. Dars jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli va maqsadli foydalanish, til o`rganuvchilarda til ko`nikmalarini shakillantirish hamda tillarni o`rganish jarayonida o`quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga bag`ishlanadi.

Tayanch so`zlar: dars jarayonlari, ATni qo`llash, chet tillar, ingiliz tili, Storyboard platformasi, eski metodlar, 21- asr AT asri, yangi metodlar, 21-asr sinfxonasi, ijodiy muhit, VR texnologiyasi, "Free 4 talk" sayti.

Аннотация: В данной статье рассказывается о современном состоянии преподавания иностранных языков в системе высшего образования нашей республики, основных методических проблемах в ходе занятий а также их современных решениях. Эффективное и целенаправленное использование современных информационных технологий в учебных процессах, формирование языковых навыков у изучающих язык, расширение мировоззрения учащихся в процессе изучения языка.

Ключевые слова: учебные процессы, использование ИТ, иностранные языки, английский язык, платформа Storyboard, старые методы, век ИТ 21 века, новые методы, класс 21 века, творческая среда, технология виртуальной реальности, сайт Free 4 talk.

Yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev o`zing ma`ruzalardagi nutqidan birida: "Xorijiy tillarni o`rgatish bo`yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo`ladigan yangi tizimni yo`lga qo`yish vaqt - soati keldi", - degan edi. Davlat rahbari tomonidan chet tillarini o`qitish bo`yicha birqancha qonun hujjatlari imzolangan (2021-yil 19-may PQ-5117-son) va qonunlar ijrosi sifatida Vazirlar Mahkamasi (keyingi o`rinlarda VM) xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish bo`yicha tashkiliy chora tadbirlarni samarali amalga oshirish bo`yich qoror qabul qilgan. Bu islohotlar natijasida C1 darajaga ega pedagog o`qituvchilar uchun qo`shimcha maosh to`lash yo`lga qo`yildi, VM huzurida xorijiy tillarni ommalashtirish agentligi tashkil etildi. Undan



tashqari, mustaqillik yillarda 51.7 ming nafardan ziyod chet tillarni o`qitish sohasida pedagoglar yetishtirildi, hamda shunga monand umum ta`lim mакtablarining 5-9 sinflar uchun chet tillari (rus, ingiliz, nemis va fransuz) bo`yicha multimedia darsliklari, kichik sinflar uchun esa, ingiliz tilini o`rganish bo`yich elektron resurslar tayyorlandi. O`qituvchi pedagoglarning esa doimiy ravshda malakalarini oshirish va yangi metodlarni o`rgatish bo`yicha malaka kurslari tashkil etildi. Yuqoridagi ma`lumotlarga tayangan holda amaldagi tizimni tahlil qiladigan bo`lsak, chet tillarini o`qitish bo`yicha tuzilgan darsliklar, materiallar zamon talablariga to`la mos kelishi kuzatiladi. Biroq, qanchalik dars materiallari zamonaviy bo`lmasin, bugungi o`quvchi – yoshlarimiz mакtab va litseylarda 9, 11 yil o`qisa ham ulrning asosiy qismi biron – bir chet tilida erkin so`zlasha olmasligi hammaga ayon. Ular hatto “O`zim haqimda” yoki “Mening oilam” kabi sodda mavzularda gapirishga ham qiynaladilar. Buday holatlarni yuzaga kelishida esa bir qancha jiddiy, ko`z ilg`amas sabablar bor, albatta. Bu muammolarni quyidagilarda ko`rish mumkin:

- avvalo, ba`zi maktablar bundan mustasno holda, eskirgan va zerikarli metodikalar, matnlarni hamda yangi so`zlarni amalda qo`llamasdan ko`r - ko`rona yodlatish va faqat kitobga tayanib dars o`tish,;
- o`qituvchining dars jarayonida o`quvchilar diqqatini o`ziga torta olmaslik;
- gapirish va yozish ko`nikmasini shakillantirishdagi oqsoqliklar;
- chet tili ustozlarining o`z ustida yetarlicha mustaqil ishlamasliklari;
- tog`li va chekka-chekka tumanlarda yosh va tajribali ustozlarning yetishmasligi;

-chekka tumanlardagi maktablarda til o`rgatish uchun qulay sharoitlarning yo`qligi bugungi kunda chet tillarini o`qitishda asosiy muammo bo`lib qolmoqda.

Bu kabi muammolarning yechimi esa faqat bиргина yo`li bu ham bo`lsa, bugungi avlod bilam o`zilari tushunadigan til orqali, ular bilan pedagoglarimiz aloqa o`rnatishlari kerak. Xo`sh u qanday til ekan? Biz 21-asr axborot texnologiyalari asrida yashamoqdamiz va aynan bu davrda eskilik sarqitiga aylangan qog`ozbozlig –u faqat kitobga tayanib dars o`tish har qaysi yoshni zeriktiradi.

Bu muammolarni hal qilish uchun esa, chet tillarini o`qitish metodikasini yangi, zamonga monand tartibda ishlab chiqilishi darkor. Dars jarayonlarida AT sirasiga kiruvchi, VR(virtual reallik), “Free4talk” va “Storyboard”, foydali platformalar va texnologiyalar kreativ dars jarayonlarini o`tishda yordam beradi. Misol uchun: “Free 4 talk” chet tillarini o`rganuvchilarni gapirish(speaking) ko`nikmalarini oshirishga imkon beradi. Bu platforma haqiqiy ingiliz(native speakers)lardan tortib dunyoning turli millat vakillari bilan turli tillarda à loqa o`rnatish imkonini beradi. Bu esa albatta gapirish ko`nikmasidan tashqari o`quvchi har xil millat vakillari bilan turli xil mavzularda suhablashish, fikrlar almashish bilan o`zlarining dunyoqarashlarini ham oshirib boradi. Biz maktablarda chet tillari dars jarayonida mavzudan kelib chiqib turli hikoyalarni yozamiz, ammo Storyboardda yozilgan hikoyalarni shunchaki hikoya emas balki uni imkoniyatlari juda ham keng. Unda o`quvchi o`zi rasm tanlab, rasmga monand personajni shakillantiradi, bu bilan o`quvchilar yaratuvchanlik, dialoglar orqali hikoyalarni yozish bilan esa, yozuv(writing) ko`nikmasini oshiradi.

VR texnologiyalarining imkoniyatlari juda keng qamrovlidir va bu narsalarni biz dunyoning rivojlangan davlatlari misolida ko`rib turipmiz. Hozirda bunday texnologiya dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari CLASSVR kompaniyasi tomonidan yetkazib berilgan. Tadqiqotlar statistikasi shuni ko`rsatdiki, tajriba orqali o`rganish inson miyasida 75 % gacha ma`lumotlarni saqlab qolishiga yordam beradi. Shuningdek, inson miyasi o`qigan narsasini atigi 10% ini saqlab qolishi, boshdan kechirgan narsalarni esa qariyb 90 % ini eslab qolishi bayon qilingan. Hatto, VR o`quvchilarning imtihon natijalarini 20 % gacha oshirib berishini kompaniya tadqiqotlar natijasida isbotlagan. IMMERSIONVR saytining maqolasiga ko`ra, bu texnologiyaning 360VR(360 graduslik video) turi jahon ta`limida keng tarqalgan. Virtual reallik yordamida



maxsus darsliklarni yaratiladi, ya`ni biror mavzuga doir ma`lumotlarni barini o`quvchi ustozini orqali emas balki, virtual sayr orqali o`rgatib boriladi. Masalan, darslikda berilgan mavzu “The historikal places of the world”, bunga doir ma`lumotlar amaldagi chet tili darsliklarida turli rasmlar bilan ko`rsatilgan. Lekin bular bola tasavvurini o`stirmaydi. Agar tillarni o`qitishda VRdan foydalanilsa, birinchidan, chet tilidagi virtual ma`ruzani eshitib tushunish orqali tinglab tushinish (listening) ko`nikmasini shakillanadi. Ikkinchidan, o`rganilayotgan tilning mamlakati haqida ham ko`plab qiziqarli ma`lumotlarni virtual tur davomida bilib olish imkoniyatini yaratadi.

Nick Babich o`zining shu soha bo`yich otkazgan tadqiqotlaridan xulosa qilib, o`z maqolasida shunday yozadi: “...21-asr sinfxonalari texnologik jihatdan ilg`or o`quv maskanlari bo`ladi, VR texnologiyasi o`quvchilarning faolligini va til o`rganishni sezilarli darajada oshiradi. VR tajribalari esa, yangilik va dunyonи o`zgartirishga tayyor bo`lgan yosh va yorqin talabalarning yangi avlodini ilhomlantiradi”.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlab o`tish kerak-ki, tillarni o`qitish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar yosh kadrlar uchun imkoniyatlar eshigini ochmoqda va pedagoglarimizdan bularga javoban o`z ustida ko`proq izlanib, o`z ilmini oshirib borishlari va o`quvchlarga faqat sifatli ta`lim berishlari zamon talabidir. Yuqorida nomlari sanab o`tilgan zamonaviy metodik qo`llanma va texnologiyalarni faqat shahar markazida joylashgan maktablarda emas balki chekka –chechka hududlarda ham amalga oshirilishi zarur. Shundagina bugungi yosh avlod, biz kutganimizdek, chet tillarni puxta egallab, o`zlarining ilmiy salohiyatlarini namoyish etishga erishiladi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-maydagi PQ-5117- son qarori.
2. Virtaul reality for schools-ClassVR <https://www.classvr.com/>
3. Nick Babich “How VR Education Will Change, How We Learn and Teach”, “Open New Horizons with VR Education”. 2019-yil 19-sentabr <https://xd.adobe.com/ideas/principles/emerging-technology/virtual-reality-will-change-learn-teach/>
4. Nick Babich “How VR Education Will Change How We Learn And Teach”, Open New Horizons with VR Education. 2019-yil 19-sentabr <https://xd.adobe.com/ideas/principles/emerging-technology/virtual-reality-will-change-learn-teach/>
5. VR for Education – The Future of Education| Immersion VR <https://immersionvr.co.uk/about-360vr/vr-for-education>